



## IQLIM MIGRATSIYASI TUSHUNCHASI, TURLARI VA XALQARO HUQUQIY MAQOMI

**Radjabova Shoxsanamxon Tolibjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Pochta manzil: radjabovashohsanam@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20639595>

**Annotatsiya:** Ushbu tezis iqlim migratsiyasi tushunchasini, uning asosiy turlarini va xalqaro huquqiy maqomini tahlil qiladi. Terminologik noaniqliklardan boshlab IOM (XMT), UNHCR va xalqaro konvensiyalardagi ta'rif yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Iqlim migratsiyasining to'rtta tasnifi: sekin/tez boshlanadigan hodisalar, ichki/xalqaro ko'chishga asoslanadi. Joriy xalqaro huquqiy maqomning yetarli emasligi ko'rsatilgan holda alohida xalqaro maqom yaratish zarurligi asoslanadi.


**Kalit so'zlar:** iqlim migratsiyasi, iqlim migrantlari, xalqaro huquqiy maqom, IOM (XMT) ta'rifi, qochqinlar huquqi, sekin boshlanadigan hodisalar, Nansen tashabbusi.

**Аннотация:** Данный тезис анализирует понятие климатической миграции, её основные виды и международно-правовой статус. Рассматриваются терминологические неточности, подходы к определению понятия со стороны МОМ, УВКБ ООН и международных конвенций. Обосновывается четырёхчастная классификация климатической миграции — медленные/быстрые события, внутреннее/международное перемещение. Доказывается недостаточность существующего международно-правового статуса и необходимость создания специального правового статуса.

**Ключевые слова:** климатическая миграция, климатические мигранты, международно-правовой статус, определение МОМ, право беженцев, медленно развивающиеся явления, Нансенская инициатива.

**Abstract:** This thesis analyses the concept of climate migration, its main types, and its international legal status. It examines terminological ambiguities and definitional approaches adopted by IOM, UNHCR and international conventions. A four-part classification of climate migration — slow/rapid onset events and internal/cross-border displacement – is elaborated. The inadequacy of the current international legal status is demonstrated and the necessity of establishing a dedicated legal status is argued.

**Keywords:** climate migration, climate migrants, international legal status, IOM definition, refugee law, slow-onset events, Nansen Initiative.





Iqlim o'zgarishi bugungi kunda nafaqat ekologik, balki chuqur ijtimoiy-huquqiy hodisaga aylandi. Jahon bankining 2018-yilgi "Groundswell" hisobotiga ko'ra, 2050-yilga qadar faqat uchta mintaqada Janubiy Osiyo, Sahara janubidagi Afrika va Lotin Amerikasida 216 milliongacha odam iqlim sababli ichki ko'chishga majbur bo'lishi kutilmoqda. Bu raqamlar global miqyosda iqlim migratsiyasining qanchalik ulkan muammoga aylanayotganini ko'rsatadi.


Shu bilan birga, "iqlim migratsiyasi" tushunchasi xalqaro huquqda hali aniq va majburiy ta'rifga ega emas. Turli tashkilotlar va tadqiqotchilar turlicha atamalar – "ekologik qochqin", "iqlim ko'chkini", "atrof-muhit migrant", "iqlim qochqini" qo'llanilmoqda. Bu terminologik tartibsizlik o'z-o'zicha siyosiy va huquqiy oqibatlarga ega: agar shaxs "qochqin" deb atalsa, u 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi kafolatlaridan foydalanishga da'vo qilishi mumkin; agar "migrant" deb atalsa, bu kafolatlar uni qamrab olmaydi.

Ushbu tezisda iqlim migratsiyasi tushunchasining shakllanishi, uning asosiy turlari va zamonaviy xalqaro huquqdagi maqomi tahlil qilinadi. Tadqiqot Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekiston kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki Orol dengizi inqirozi va suv tanqisligi bu mintaqada iqlim migratsiyasini real va dolzarb muammoga aylantirib bo'lgan.

"Iqlim migratsiyasi" tushunchasi ilmiy muomalaga nisbatan yaqinda kirdi va hali ham terminologik jihatdan barqarorlashgan emas. 1985-yilda UNEP eksperti Essam El-Hinnawi birinchi marta "ekologik qochqin" atamasini qo'llagan. Ushbu ta'rifga ko'ra, ekologik qochqin "atrof-muhitning sezilarli darajada buzilishi tufayli o'z yashash joyini vaqtincha yoki doimiy ravishda tark etishga majbur bo'lgan shaxs" hisoblanadi. Biroq "qochqin" atamasining 1951-yilgi Konvensiya bilan bog'liq huquqiy yuklamasi sababli bu atama tortishuv obyektiga aylandi.

Keyinchalik IOM (Xalqaro migratsiya tashkiloti) 2008-yilgi yondashuvda yanada kengroq va ehtiyotkorroq ta'rifni taklif qildi: iqlim migrantlari "iqlim o'zgarishi va ekologik degradatsiya tufayli o'z yashash joyidan ko'chishga majbur bo'lgan yoki ko'chishni tanlagan shaxslar". Bu ta'rif "qochqin" o'rniga "migrant" atamasini qo'llash bilan majburiy himoya kafolatlarini vujudga keltirmaydi. Shu sababli McAdam kabi tadqiqotchilar bu ta'rifni "huquqiy jihatdan oq tusga bo'yalgan" (legally bleached) deb tanqid qiladi.

Iqlim migratsiyasini to'g'ri tushunish uchun uning asosiy turlarini aniqlab olish zarur. Tadqiqotchilar odatda ikkita asosiy tasnif bo'yicha ko'rib chiqadi: (a) ko'chishni keltirib chiqaruvchi iqlim hodisasining tezligi; (b) ko'chishning geografik doirasi.





**Sekin boshlanadigan hodisalar (Slow-onset events).** Dengiz sathining ko'tarilishi, cho'llanish, muzliklarning erib borishi, qurg'oqchilik, tuproq degradatsiyasi kabi asta-sekin kuchayib boruvchi iqlim hodisalari. Bu tur iqlim migratsiyasining eng ko'p muhokama qilingan shakli bo'lib, Markaziy Osiyoda Orol dengizi inqirozida yaqqol namoyon bo'ldi.

**To'satdan boshlanadigan ekstremal hodisalar (Rapid-onset events).** Sel, ko'chki, siklon, dovul kabi qisqa vaqt ichida ro'y beradigan iqlim hodisalari. Bu tur ko'chish odatda vaqtinchalik xarakter kasb etadi, biroq iqlim o'zgarishi ushbu hodisalarning chastotasi va kuchini oshirib borishi bilan ular ham doimiy ko'chishga olib kelishi mumkin.

**Ichki ko'chish (Internal displacement).** Ko'chadigan shaxs o'z mamlakati ichida qoladi. Iqlim migratsiyasining hozirgi amaliyotda asosiy shakli shu bo'lib, BMT Bosh ko'rsatmalari qisman tatbiq etilishi mumkin. Jahon banki prognoziga ko'ra, 2050-yilgacha barcha iqlim ko'chishining 80% ichki ko'chish shaklida bo'ladi.


**Chegaralararo (xalqaro) ko'chish (Cross-border displacement).** Ko'chib ketgan shaxs boshqa davlat hududiga o'tadi. Bu tur xalqaro himoya majburiyatlarini yuzaga keltirishi mumkin va xalqaro huquqning asosiy tortishuv nuqtasi hisoblanadi. Teitiota v. New Zealand (2020) ishi aynan shu tur doirasida ko'rib chiqilgan.

Ushbu to'rt turning kombinatsiyasi iqlim migratsiyasining amaliy ko'rinishlarini tavsiflash imkonini beradi. Masalan, Orol dengizi inqirozi sekin boshlanadigan hodisa va ichki ko'chish birikmasidan iborat; Tinch okeanidagi orollar sekin boshlanadigan hodisa va xalqaro ko'chish birikmasidan iborat.

Iqlim migrantlarining xalqaro huquqiy maqomini to'rtta asosiy hujjat doirasida baholash mumkin: 1951-yilgi konvensiya, BMT Bosh ko'rsatmalari (1998), Nansen Tashabbusi (2015) va Migratsiya bo'yicha Global Kompakt (2018). Bu to'rtta hujjatdan faqat birinchisi – 1951-yilgi Konvensiya yuridik majburiy kuchga ega; qolganlari “yumshoq huquq” (soft law) maqomida hisoblanadi.

1951-yilgi Konvensiya iqlim migrantlarini himoya doirasiga kirmaydi, bu haqida yuqorida batafsil ma'lumot berildi. BMT Bosh ko'rsatmalari ichki ko'chuvchilarni qamrab oladi va ekologik sabablarga ham murojaat qiladi (5-tamoyil), biroq majburiy emas. Nansen Tashabbusi mintaqaviy va submintaqaviy kelishuvlarni qo'llab-quvvatlaydi, biroq u ham majburiy emas.

Teitiota v. New Zealand (2020) qaroridagi BMT Inson huquqlari qo'mitasining yondashuvi bir yangilik kiritdi: iqlim o'zgarishi tufayli hayotga xavf





tug'ilsa, yashash huquqini buzishi mumkin. Biroq bu qaror: (a) rasmiy maqom yaratmadi; (b) faqat "yaqin xavf" (imminence) mavjud bo'lsa qo'llaniladi; (c) Yangi Zelandiya uchun bevosita majburiy bo'lsa-da, boshqa davlatlar uchun yuridik majburiyat keltirmaydi. Shu sababli, bu qaror "muhim birinchi qadam" sifatida baholanadi, lekin to'liq yechim hisoblanmaydi.


Joriy huquqiy tizim iqlim migrantlarini yetarli darajada himoya qilmaydi, bu uch dalil bilan asoslanadi. Birinchi dalil miqdoriy: IPCC (Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (panel)) prognoziga ko'ra, 2050-yilga qadar 216 million kishi iqlim sababli ko'chishi mumkin. Joriy tizim bunday ko'lamlı ko'chishni boshqarish uchun mo'ljallanmagan. Ikkinchi dalil – huquqiy: iqlim migrantlari na qochqin (1951-yilgi Konvensiya bo'yicha), na ichki migrant (majburiy BMT Bosh ko'rsatmalari bo'yicha) sifatida to'liq kafolatlangan maqomga ega emas. Uchinchi dalil – adolat: iqlim inqiroziga eng kam hissa qo'shgan mamlakatlardagi aholi – Tinch okean orolchalari, Markaziy Osiyo, Sahara janubi eng ko'p zarar ko'rmoqda.

Yangi xalqaro huquqiy maqom uchun minimal ta'rif quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi: "iqlim migranti – iqlim o'zgarishi, ekologik degradatsiya yoki ekstremal ob-havo hodisalari tufayli o'z doimiy yashash joyini tark etishga majbur bo'lgan yoki ko'chish xavfi ostida bo'lgan shaxs". Ushbu ta'rif asosida minimal huquqlar to'plami: non-refoulement kafolati; vaqtinchalik himoya maqomi; hujjatlashtirish huquqi; tibbiy yordam va ijtimoiy xizmatlar; qayta joylashishga ko'mak belgilanishi lozim.

Markaziy Osiyo uchun esa mintaqaviy konvensiya tuzish eng maqbul yo'l hisoblanadi. IFAS (Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi) yoki SCO (Shanxay hamkorlik tashkiloti) doirasida bunday konvensiyani ishlab chiqish institutsional jihatdan mumkin. Barcha besh Markaziy Osiyo davlatining Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konvensiyasi va Parij kelishuvini ratifikatsiya qilganligi bu jarayon uchun siyosiy zamin yaratadi.

Yuqorida iqlim migratsiyasi tushunchasi, turlari va xalqaro huquqiy maqomi tahlil qilinib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

**Birinchi**dan, "iqlim migratsiyasi" tushunchasi xalqaro huquqda hali majburiy va umumqabul qilingan ta'rifga ega emas. El-Hinnawi (1985)dan IOM (2008)gacha bo'lgan terminologik evolyutsiya termining huquqiy yuklamasini kamaytirib bordi, natijada "qochqin" o'rniga "migrant" atamasi qo'llanilishi bilan majburiy himoya kafolatlari yo'qotildi.






**Ikkinchidan**, iqlim migratsiyasini to'rtta tur: sekin/tez boshlanadigan hodisalar hamda ichki/xalqaro ko'chish doirasida tasniflash uni huquqiy jihatdan tahlil qilishning asosiy metodologik vositasi hisoblanadi. Sekin boshlanadigan hodisalar tufayli xalqaro ko'chish eng murakkab va eng oz tartibga solingan kategoriyadir.

**Uchinchidan**, joriy xalqaro huquqiy tizim 1951-yilgi Konvensiya, BMT Bosh ko'rsatmalari, Nansen Tashabbusi va Global Kompakt birgalikda ham iqlim migrantlari uchun yetarli majburiy himoyani ta'minlamaydi. Teitiota v. New Zealand (2020) muhim birinchi qadam bo'lsa-da, yangi rasmiy maqom yaratmadi.

**To'rtinchidan**, iqlim migrantlari uchun yangi xalqaro huquqiy maqom yaratish zarurligi uch asosda: miqdoriy, huquqiy va iqlim adolatiga asoslanadi. Markaziy Osiyo uchun mintaqaviy konvensiya tuzish eng maqbul va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan birinchi qadam hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. El-Hinnawi E. Environmental Refugees. — Nairobi: UNEP, 1985. — P. 4.
2. Gemenne F. Why the Numbers Don't Add Up: A Review of Estimates and Predictions of People Displaced by Environmental Changes // Global Environmental Change. — 2011. — Vol. 21, Suppl. 1. — P. S41–S49.
3. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration. UN Doc. A/RES/73/195. — 19 December 2018.
4. IOM. Migration, Environment and Climate Change: Assessing the Evidence. — Geneva: IOM, 2009.
5. IPCC. Sixth Assessment Report (AR6). Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
6. Kälin W., Schrepfer N. Protecting People Crossing Borders in the Context of Climate Change. UNHCR Legal and Protection Policy Research Series. — Geneva: UNHCR, 2012.
7. Mayer B. The International Law on Climate Change. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018.
8. McAdam J. Climate Change, Forced Migration, and International Law. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 296 p.
9. Nansen Initiative. Agenda for the Protection of Cross-Border Displaced Persons in the Context of Disasters and Climate Change. — Geneva, 2015.
10. Paris Agreement under the UNFCCC, 12 December 2015. FCCC/CP/2015/10/Add.1.
11. Rigaud K.K. et al. Groundswell: Preparing for Internal Climate Migration. — Washington, D.C.: World Bank, 2018. — 256 p.





12. UN Guiding Principles on Internal Displacement. UN Doc. E/CN.4/1998/53/Add.2. — 11 February 1998.
13. UN Human Rights Committee. *Ioane Teitiota v. New Zealand*. CCPR/C/127/D/2728/2016. — 7 January 2020.
14. Convention Relating to the Status of Refugees, 28 July 1951. UNTS Vol. 189. — P. 137.
15. International Covenant on Civil and Political Rights, 16 December 1966. UNTS Vol. 999.

